

Xususiy aviatsiya - o'z vaqtini qadrlaydiganlar tanlovi

2021 22 Dekabr

22-dekabr kuni O'zbekistonda biznes-aviatsiyani yo'lga qo'yilgani munosabati bilan Uzbekistan Airways aviakompaniyasi tomonidan noyabr oyidan ekspluatatsiya qilinayotgan birinchi Pilatus PC-12 havo kemasining taqdimotini o'tkazdi. Tadbirda kichik va o'rta biznes vakillari, blogerlar va OAV vakillari ishtirok etdi.

Taqdimot doirasida Pilatus PC-12 havo kemasining uchuvchisi Denis Evdasev yangi samolyot haqida bir nechta dalillarni - aviatransportning ekspluatatsiyasi kam harajatliligi va noyob uchish-qo'nish xususiyatlariga ega bo'lib, ular qisqa va tayyor bo'lmagan uchish-qo'nish yo'llariga qo'nish imkonini berishini aytib o'tdi. Bu esa Pilatus PC-12 samolyotlariga O'zbekiston aeroportlarining 40% ga yaqin ana shunday UQY bilan jihozlangan, aksariyat qismiga parvoz qilish imkonini beradi. Aviakompaniya vakillari yaqin kelajakda Uzbekistan Airways Pilatus PC-24 sotib olish rejalashtirayotganini va shu bilan O'zbekistonda tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochishini ma'lum qildi.

“Bugungi kunda, biznes aviatsiyasi - yo'lovchilarga maksimal qulaylik yaratayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, biron-bir aviakompaniyaning marshrut tarmog'iga kirmaydigan yo'nalish bo'yicha aviatashuvni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Biroq, bunday parvozning asosiy afzalligi, shubhasiz, samolyotda cheklangan miqdordagi yo'lovchilar, vaqt oralig'i va yuqori qulaylik hisoblanadi. Aynan mana shunday maqsadlar uchun bizning aviakompaniyamiz biznes yo'lovchilarga mutlaqo yangi xizmatdan foydalanishni - Pilatus PC-12 bortida biznes-parvozlarni tashkil etishni taklif qiladi” - deydi Uzbekistan Airways Boshqaruv raisi o'rinbosari Shuhrat Xudaykulov.

Shuningdek, uchrashuv davomida Airbus H-125 vertolyotlari namoyish etildi, Aviatransport yuqori baland tog' va issiq iqlim sharoitlarida foydalanishga moslashtirilgan, yo'lovchi va VIP-tashuv uchun qulay bo'lgan, ekskursiyalarni o'tkazish, huquqni muhofaza qilish vazifalarini bajarish, yong'inni o'chirish, kuzatuv operatsiyalarini bajarish, shuningdek tibbiy transportirovkada foydalaniladi.

Tadbir ishtirokchilari uchun PC-12 samolyoti, Airbus H-125 va Mi-8MTV vertolyotlari batafsil ko'zdan kechirish, shuningdek, yuqori uchish-texnik va uchish-qo'nish xususiyatlarini aniq tasdiqlash maqsadida Toshkent shahri ustidan parvozlarni tashkil etildi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways